

Hojiyeva Muxlisa Ergash qizi

**“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA QO‘LLANILGAN PAREMALARNING
TEMATIK GURUHLANISHI**

Annotatsiya: “Devonu lug‘otit turk” kitobida keltirilgan ma’lumotlar ajdodlarimizning turmush madaniyati, ayniqsa, X-XII asrlarda diyorumizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar yashagan davrni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababdan mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri, balki undan keyingi paytlardagi Movarounnahr aholisining turmush tarzi bilan bog‘liq ijtimoiy - iqtisodiy, axloqiy, diniy e’tiqod hamda urf-odatlar haqida ham muhim tushunchaga ega bo‘lishimizda katta yordam beradi. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga oid noyob tadqiqotlari va xulosalari bilan ham qimmatlidir. Bu asar shu kunga qadar o‘z o‘rnini yo‘qotmagan bebaho asar desak xato bo‘lmaydi.

Abstract: The information contained in the book "Devonu Lugaotit Turk" is an important source for studying the culture of our ancestors, especially the period of the great scholars who lived in our country in the 10th-12th centuries. For this reason, this work helps us to gain an important understanding not only of the Karakhanid period, but also of the social, economic, moral, religious beliefs and customs related to the lifestyle of the people of Movarounnahr in the later times. Also, the work "Devonu Lugotit Turk" is about Turkish languages. it is also valuable for its unique studies and conclusions about phonetics, grammar and lexis. It would not be wrong to say that this work is an invaluable work that has not lost its place to this day.

Аннотация: Информация, содержащаяся в книге «Девону Лугаотит Тюрк», является важным источником для изучения культуры наших предков, особенно периода великих учёных, живших в нашей стране в X-XII веках. По этой причине эта работа помогает нам получить важное понимание не только периода Караханидов, но также социальных, экономических, моральных, религиозных верований и обычаев, связанных с образом жизни жителей Моваруннахра в более поздние времена. Также произведение «Девону Луготит Тюрк» посвящено турецким языкам, он также ценен своими уникальными исследованиями и выводами по фонетике, грамматике и лексике. Не будет ошибкой сказать, что эта работа – бесценный труд, не потерявший своего места и по сей день.

“Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llanilgan paremalarning tematik guruhlanishi.

BILIG- leksemasiga mansub paremalar

“Devonu lug‘otit turk” da “bilik” so‘ziga “bilim”, “hikmat” va “aql” deb izoh berilgan. Bilga hikmat aytuvchi, hikmatshunos, oqil, dono, aqlli, olim kishiga nisbatan qo‘llanadi. Demak, bilik – hikmat ma’lum ma’noda hozirgi o‘zbek tili lug‘at boyligidagi maqol janrining mazmunini ifodalaydi. Maqolda xalqning, ijtimoiy tabaqa yoki guruhning dunyoqarashi, hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari ifodalanadi. Qadimgi turkiylarning bilgalarini aytgan biliklar ham shunday xususiyatga egadir.

“Devonu lug‘otit turk” da biliklardan ko‘plab namunalar keltirilgan:

Ag‘iz yesa, ko‘z uyazur – Og‘iz yesa, ko‘z uyalur.

Etli, tirinaqli ezirmas – Et tirnoqdan ayrilmas.

Qargʻa qazgʻa oʻtkoʻnlsa buti sinur – Qargʻa uchishda gʻozga taqlid qilsa, buti sinar.

Qoʻsh qilich qinqa sigʻmas – Qoʻsh – ikki qilich bir qingʻa sigʻmas

Bu maqolning hozirgi oʻzbek tilidagi muqobili – Bir qozonda ikkita kalla qaynamas.

“Alimchi – arslon, berimchi – sichgʻan” – Oluvchi – arslon, qarzni beruvchi – sichqon. Bu maqolning hozirgi oʻzbek tilidagi muqobili – “Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim” sifatida tahlil qilinadi.

Nasihatni ifodalovchi paremlar

“Devonu lugʻotit turk”da oʻgit, nasihat ruhidagi sheʼrlar “oʻtluk” deb nomlanadi. Baʼzan bu leksema maʼnosini oʻvoʻt soʻzi ham ifodalagan. Oʻvoʻt leksik birligi asli oʻgitdir. Oʻtluk tarbiya mavzusidagi bir necha bandli oʻgit hamda nasihatlaridir. Devonda qofiyalanish tizimiga koʻra oʻtluk janriga xos ikkita sheʼr parchalari saqlanib qolgan.

Toʻrtlik:

Qoʻshni-qoʻnuq agʻishqa,

Qilgʻil angʻar agʻirlik.

Artut alib anungʻil,

Ezgu tavar oʻgʻruluq.¹

Mazmuni:

Qoʻni - qoʻshni qarindosh,

Koʻrsin sendan yaxshilik.

Ne-ne sovgʻa qilishga,

Yaxshirogʻin qil ortiq.

Maqol shunday izohlanadi, qoʻni – qoʻshni , qarindoshlarga doimo yaxshilik qil, ular har doim sendan yaxshilik koʻrsin , nimaiki sovgʻa qilsang eng yaxshisini qil ularga.

Toʻrtlik:

Qoʻlsa qali oʻgʻrayin,

Bergil taqi azuqluq.

Qargʻish qilur umalar,

¹ Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 335-b.

Yunchig‘ ko‘rub qo‘nuqluq.²

Mazmuni:

Kelsa birov yo‘qlashib,

Bergil yaxshi ozuq non.

Qarg‘ab ketar mehmonlar,

Kutar bo‘lsang gar yomon.

Birinchi o‘tluk(nasihat) leksemasi mehmon kutish odobi, qo‘ni-qo‘shnilar bilan ahil bo‘lish, saxiylik haqida nasihat beriladi.

Ikkinchi o‘tlukda esa, insondagi ichki va tashqi go‘zallik ulug‘langan. Shirin so‘zlilik, hayotdagi har qanday qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lish, boylikka hirs qo‘ymaslik insoniy fazilat sifatida ko‘rsatilgan.

“Devonu lug‘otit turk” orqali bizgacha yetib kelgan qadimgi she‘riy to‘rtliklarning tilshunosligimizda ahamiyati katta. Turkiy tillardagidagi bu kabi to‘rt misralik she‘r va bandi to‘rt misralik bo‘lgan she‘rlar o‘rtasida o‘ziga xos semantikasi borligi bilan ajralib turadi , albatta Devonda pand-nasihati ruhida quyidagi to‘rtlik keltirilgan:

To‘rtlik:

Qarduni yenyu saqinmang,

Tuzg‘uni manyu sezinmang.

Bulmadiq nenga sevinmang,

Bilgalar ani yirar.³

Mazmuni:

Muzni javohir deb bilmang,

Hadya oshni yeb qo‘ymang.

Behudaga sevinmang,

Donolar shuni aytur.

² Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 272-b.

³ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 396-b.

To‘rtlik mazmuni shunday, bilamizki muz ham yaltiroq, shaffof va chiroyli, ko‘rinishidan javohirga o‘xshaydi. Har qanday yaltiragan va chiroyli narsa javohir bo‘lavermaydi, har qanday narsaga ham oldindan sevinish kerak emas.

To‘rtlik:

Korkug to‘ning o‘zinga

Tatlig‘ ashing azinqa,

Tutlig‘ qo‘niq ag‘irliq

Jazsun jasin buzunqa.⁴

Mazmuni:

Ko‘rkam chiroyli to‘ning o‘zingga

Shirin ovqatingni boshqalarga ata;

Qo‘noqlarni hurmatla

Toki shuhrating el-yurtga taralsin.

Bu to‘rtlik shunday tahlil qilinadi: “Chiroyli to‘ningni o‘zing kiy, lekin shirin taomlaringni boshqalarga ber, mehmomdo‘st bo‘l, toki shuhrating olamga yoyilsin” tarzida.

To‘rtlik:

Alg‘il o‘gut mendin,

Og‘ul yordam tila,

Bojda ulug‘ bilga bolub,

Bilgin ula.⁵

Mazmuni:

O‘g‘il mendan o‘git ol,

Fazilat tila.

El-yurt orasida ulug‘ olim bo‘l,

⁴ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 80-b.

⁵Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 85-b.

Ilmingni tarqat.

Bu toʻrtlik semantikasi quyidagicha izohlanadi: “Ey oʻgʻlim, mendan oʻgit nasihat ol, odobli va tarbiyali boʻlishga tirish, toki el ichida zoʻr olim boʻlib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat”, - bu parema hozirgi kunda ham oʻz kuchini yoʻqotmagan.

Toʻrtlik:

Qancha bardin ach ogʻul,

Erdin munda inch amul,

Attin emdi sen toʻngul,

Qildin ersa qilmagʻu. ⁶

Mazmuni:

Nega ketding, ey ogʻul,

Bu yerda tinch va mamnun eding.

Noloyiq ishni qilganing uchun

Sen endi otdan umidingni uz.

Ilgari oʻzi yonida yashab, soʻng otini tashlab ketib, keyin otini soʻrab kelgan yigitga otni bermaslik uchun xitob qilib aytadi: mening yonimda salomat va tinch eding, ahvoling yaxshi, shod va mamnun eding, nega mendan yuz oʻgirding? – deb xitob qilingan oʻgitga nazar tashlaydigan boʻlsak bu oʻgitning hozirgi tilshunoslikdagi paremiologik varianti “Eshagi loydan oʻtguncha” iborasiga toʻgʻri keladi, yoki adabiyotga nazar tashlasak, Ezop masallaridagi “Kiyik va tokzor” masaliga qiyoslashimiz mumkin. Ushbu masalda ham aynan shu mantiqiy mazmunga ega boʻlgan masal keltirilgan.

Maqtoʻv ruhidagi paremlar semantikasi

ʻAlqish – olqish, maqtash, duo qilmoq, madhiya aytmoq, tabrikلامoq maʼnolarida qoʻllaniladi. Devonda olqishga berilgan taʼrifga tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashiladigan boʻlsa, bizgacha yetib kelgan qadimgi sheʼriy asarlar orasida bu janrga mansublarini aniqlash mumkin.

1. Tangriga maqtoʻvlar (arabcha - “hamd”). Qadimgi turkiy xalqlar ogʻzaki ijodida yaratilgan asarlar, shu jumladan, ayrim tosh bitiklar tangriga olqish va maqtoʻvlar bilan boshlangan. Masalan, “Devonu lugʻotit turk” da saqlangan bir qahramonlik dostonining muqaddimasida quyidagi olqish berilgan.

Maqtoʻv:

Tangri ajun turutti,

⁶Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. –T., 1960 104-b.

Chigʻri izi tezginoʻr,

Yulduzlari yurkashib,

Tun kun uza burkanur.⁷

Mazmuni:

Tangri olamni yaratdi,

Falak doim aylanur.

Kun oʻrnini tun olur.

Yulduzlari shaylanur.

Yaʻni xudo olamni yaratdi, falak doim aylanib turadi. Yulduzlar saf tortib tizilgandir, kecha kun ustiga qoplendi.

Maqtov:

Yaratti yashil yash,

Savurdi oʻrung qash.

Tizildi qara qush,

Tun kun uza yurkanur.⁸

Mazmuni:

Yashil koʻkni yaratti,

Yulduzlar sochildi.

Mezon yulduz tizildi,

Tun kun uza qoplanur.

Yaʻni: Osmonni taʻriflaydi, uni yulduzlar bilan bezadi, mezon yulduzi atrofiga tizdi, tun va kunni bir biri bilan almashinadigan qildi.

2. Biror qahramon yoki hukmron nomiga olqishlar (arabcha - “madhiya”). Devonda shunday toʻrtlik keltiriladi:

⁷ Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk.Uch tomlik II tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 350-b.

⁸ Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 318-b.

Toʻrtlik:

Qachan koʻrsa ani turk,

Buzun angʻa aning aydachi.

Mungar tagir ulugʻluq,

Munda naru keslanur.⁹

Yaʼni parcha izohi shunday: Bir kishini maqtab aytadi: Agar uni turklar koʻrsa “ulugʻlik yaxshilik bu odamga yarashadi va shu bilan tugaydi”- bu inson doim boshqalarga yaxshi pand-nasihat qiluvchi, boshqani hojatini chiqaruvchi – deb maqtabadi.

Didaktik ruhdagi paremlar

“Devonu lugʻotit turk” da sav termini toʻgʻrisida keng maʼlumot berilgan. Sav voqeyiy tasvirga xos bir necha termining umumlashma nomi, yaʼni hozirgi adabiyotshunoslikdagi epik tur atamasiga yaqin turadi. Devonda “Otarlar soʻzi” iborasi sav termini bilan ham ifodalangan. “Savda shundagʻ kelir” – otalar soʻzi shundoq keladi. “Otarlar soʻzi” ham bilik maʼnosiga yaqin turadi, ammo bu ikki atamaning farq qiluvchi xususiyatlari ham mavjud. Biligda dono fikrlar va hikmatli soʻzlarning qisqalik, loʻndalik, ayni paytda koʻchma maʼnolik xususiyatlari mujassamlashadi. Biligning ijodkori zamondosh bilga boʻlishi ham mumkin. “Otarlar soʻzi”ning janr xususiyati oʻtmishdan meros boʻlib qolgan pand-nasihat, axloq, odob ifodalangan asarlarni qamrab oldi. Quyidagi toʻrtlikda ana shunday kishilar nazarda tutilgan.

Toʻrtlik:

Erdi uza eranlar

Erdam begi bilig tagʻ.

Aydi oʻkush oʻgutlar,

Koʻnglim boʻlur angar, sagʻ.¹⁰

Mazmuni :

Bordi qadim donolar,

Togʻday yuksak bilimda.

Eslab oʻgitlarini

Quvonch ortar dilimda.

⁹ Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 335-b.

¹⁰ Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 116-b.

Ya'ni, ilgarilar ilmi hikmatshunos, fazilatli kishilar bor edi, ular ko'p nasihatlar so'zlar edilar. Ularni eslash bilan ko'ngil safo topadi. Bu yerda shunday deyiladi: Ilgarilari ilm cho'qqisini egallagan, fazilat ustodlari bore di. Ular ko'p-ko'p nasihat so'zlar edilar, ko'ngilga ular orom beradi.

Ta'limiy (masal) xarakterdagi paremlar

Mahmud Koshg'ariy qadimgi bu terminlar haqida ma'lumot berar ekan, sav o'zagiga” “- lashdi” qo'shimchasini qo'shish orqali turkiy xalqlar og'zaki ijodida mavjud bo'lgan yana bir termin to'g'risida ma'lumot beradi. “Savlashdi-masal aytishdi. Ul mening birla savlashdi-ul men bilan masal aytishdi, u menga masal aytdi. Shuningdek, xabarlar, so'zlar, hikoyalar aytishga ham bu so'z qo'llaniladi”. Demak, sav – keyingi davr adabiyotida masal (arabcha) nomi bilan ifodalangan termin mazmunini ham qamrab oladi. Masal - arab. — namuna, misol. Ta'limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy shakldagi asar. M. da insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi Masalga hajviy ruh bag'ishlaydi. Devonda berilgan bitik – maqollar orasida ixcham masallar ham uchraydi. Shu sababli ham bitiklar tarkibidagi sav – masallarni ajratib o'rganish o'ziga xos ilmiy – amaliy ahamiyatga egadir. Quyidagi bitikni sav-masal deb atash uchun masal termini talabi taqoz etadi.

Masalda shunday deyiladi:

Ashich ayur: tubum altun,

Qamich ayur: men qaydaman?¹¹

Mazmuni:

Qozon aytur: tubim oltun,

Cho'mich aytur: men qaydaman?

Mahmud Koshg'ariy bu misralarni sharhlar ekan, u maqtanuvchi kishiga nisbatan qo'llanishini aytadi. lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil etiladigan bo'lsa, bu mo'jaz she'rdagi ikki obraz – Qozon va Cho'mich obrazi berilgan. Qozon maqtanchoq kishi, Cho'mich esa o'sha odamning kimligini yaxshi biladigan shaxsning timsolidir. Qozonning mehnatini cho'michsiz tasavvur etib bo'lmaydi, xalqimizda “Qozonda bo'lsa, cho'michga chiqadi” degan maqol ham mavjud. Sav – masalda Cho'mich obrazi ijobiylik xususiyatiga ega. U haqiqat oldida ko'z yummaydi, jim o'tirmaydi. Maqtanchoq qozonga qarab, “men qaydaman?” deb murojaat etish orqali “men sen bilan birgaman, birga ishlayman, siru asroringni, basharangni yaxshi bilaman, sen tillo emassan” degan haqiqatni aytish darajasiga ko'tarilgan. Demak, sav-masalning g'oyasi maqtanchoqlikni qoralash, to'g'rilik, haqiqatni ulug'lashga qaratilgan.

Masalda shunday deyiladi:

¹¹ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 86-b.

Ikki bug‘ra ikashur,

O‘tra ko‘gako‘n yanchilur.¹²

Mazmuni:

Ikki ayg‘ir olishar,

O‘rtada so‘na o‘lar.

Ya‘ni, ikki ayg‘ir olishadi va tishlashadi. Oralarida so‘na halok bo‘ladi. Bu masal ikki botir urishib, orada kuchsizlar halok bo‘lishiga ishorat qilib aytiladi.

Xulosa qilib aytganda, bu bobdagi har bir leksik birlik tilshunoslik yuzasidan tahlilga tortildi va izohlandi. Biz o‘rganayotgan ushbu asarda 305 ta , ayrim manbaalarda 250 dan ortiq maqol va matal, parchalar, she‘riy to‘rtliklar hamda aforizimlardan tashkil topgan.

Ushbu mitti she‘rda ham sav-masal janri talabiga javob beradigan obraz va syujet mavjud. Ayg‘ir-zo‘ravonlik, So‘na –ojizlik timsolidir. Bir-biriga qasdlashgan hukmdorlar, bahodirlar urushadilar, jang qiladilar, ammo o‘rtada begunoh kishilar qirilib ketadi. Sav-masalning mantiqiy hukmi ojizlikni himoya qilish, zo‘ravonlikni qoralash g‘oyasi asosida qurilgan.

ADABIYOTLAR

1. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.Uch tomlik I tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960.
2. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.Uch tomlik II tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1963

¹² Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.Uch tomlik II tom / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –T., 1960 332-b.